

“JADIDLAR: MILLIY O‘ZLIK, ISTIQLOL VA DAVLATCHILIK G‘OYALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari! Qadri mehmonlar! Xonimlar va janoblari! Siz, azizlarni o‘tgan asr boshlarida shakllanib, nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun musulmon olami va turkiy dunyo tarixida chuqur iz qoldirgan jadicilik harakatini har tomonlama o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro anjumaning ochilishi bilan chin qalbdan tabriklayman.

Mushtarak tariximizning yorqin sahilalarini tashkil etadigan ma‘rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o‘z qimmatini va ahamiyatini hamon yo‘qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ‘ib etish bizning ustuvor vazifamizdir.

Bugungi anjumanimizga tashrif buyurgan nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari va vakillariga, shuningdek, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Vengriya, AQSH, Germaniya, Niderlandiya, Shvetsiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlardan kelgan taniqli olim va ekspertlarga ushbu anjuman tashkil etish tashabbusimizni qo‘llab-quvvatlaganliklari uchun samimiy tashakkur bildiraman.

Aziz do‘stlar! O‘z mohiyat e‘tiboriga ko‘ra noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo‘lgan jadicilik g‘oyasining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, ushbu harakat namoyandalari barcha Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o‘ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo‘shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o‘rganish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Shu nuqtaiy nazardan qaraganda, taraqqiyatparvar ajdodlarimizning ilg‘or g‘oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidagi o‘rni va ta‘sirini o‘rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansi buniyod etishda ushbu merosning mustahkam paydoyor bo‘lib xizmat qilishi bilan bog‘liq masalalar bugungi konferensiyaning asosiy muhokama mavzulari etib belgilangan alohida ahamiyatga ega.

Barchamizga ayonki, **“Tilda, fikrda, ishda birlik”** degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan jadic bobolarimiz xalqimizni jaholat va qo‘lqo‘llanganlikdan

chiqish, ularni g‘aflet botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li — bilim va ma‘rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar.

Ular shu yo‘lda fidoyilik ko‘rsatib, yangi usul maktablari, teatr va kutubxonalar, nashriyotlar ochdilar. Jamiyat a‘zolarining dunyoqarashi va turmush tarzini o‘zgartirish maqsadida gazeta va jurnallar nashr etdilar. Yoshlarni ilg‘or davlatlarga o‘qishga yubordilar.

Shu bilan birga, davlat boshqaruvi, sud-huquq, moliya, soliq tizimlari, yer masalalarini tadjriy asosda tubdan isloh qilish uchun g‘oyaviy va amaliy harakatlarni olib bordilar. Bir so‘z bilan aytganda, ular milliy uyg‘onish, milliy taraqqiyot g‘oyasini ro‘yobga chiqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar.

Afsuski, o‘sha davrdagi mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum bu ulug‘vor maqsadlarni amalga oshirishga yo‘l bermadi.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda inson qadri ulug‘lanadigan adolatlilik, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadic bobolarimizning ezgu g‘oya va dasturlariga har jihatdan uyg‘un va hamohangdir.

Shu bois, xalqimiz ozodligi va Vatanimiz ravnaqi yo‘lida aziz jonlarini fido qilgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini yangicha tafakkur asosida o‘rganish hamda targ‘ib etishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Yurtimizda ushbu yo‘nalishda muhim farmon va qarorlar qabul qilinib, har yili 31-avgust — Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni sifatida keng nishonlanmoqda.

“Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi va jamoat fondi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarda hududiy bo‘limlari faoliyat olib bormoqda.

Ana shu ishlarimizning mantiqiy davomi sifatida Buxoro shahridagi tarixiy maskanda Jadidchilik tarixi muzeyi tashkil etilmoqda.

Bu murakkab davr tarixiga oid ilmiy va badiiy asarlar, “Tarixning noma‘lum sahifalari”, “Qatag‘on qurbonlari” nomli ko‘p jildli xotira kitoblari nashr etilmoqda. Badiiy va hujjatli filmlar, ko‘rsatuvlar tayyorlanib, namoyish qilinmoqda. Xalqaro konferensiyalar, ko‘rgazmalar va davra suhbatlari, xotira kechalari, seminarlar muntazam o‘tkazilmoqda.

Atloqli ma‘rifatparvarlarimiz davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanmoqda. Ularning aziz nomlari bilan ataladigan yodgorlik majmualari, ta‘lim muassasalari, muzeylar, bog‘ va xiyobonlar barpo etilmoqda.

Keyingi yillarda O‘zbekiston Oliy sudi tomonidan 1030 dan ziyod mustahab

tuzum qatag‘oniga uchragan vatandoshlarimiz nomi oqlangani tarixiy adolatlilikni tiklash yo‘lidagi yangi qadam bo‘ldi.

Ayni vaqtda, yurtimizda har yili avgust oyini “Qatag‘on qurbonlarini yod etish oyi” sifatida o‘tkazish, fidoyi vatandoshlarimiz va ularning avlodlari yashagan va yashayotgan xonadonlarga yodgorlik lavhalarini o‘rnatish, ularning vorislari hamda yaqin kishilariga hurmat-e‘tibor ko‘rsatish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Mahalla idoralari “Qatag‘on qurbonlari xotirasi burchaklari” va “Mahalla xotira kitoblari”ni tashkil etish, har yili kamida 100 nafar qatag‘on qurboni hamda jadic bobolarimiz hayoti va faoliyatini aks ettiradigan to‘plam tayyorlash rejalashtirilgan.

Ushbu muhim mavzuda arxiv hujjatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun maqsadli grantlar e‘lon qilish, yangi badiiy va publitistik asarlar yaratish, xorijiy ilm-fan markazlari, fondlar va muzeylar, kutubxonalar bilan hamkorlikni rivojlantirish choralarini ko‘rilmoqda.

Buyuk ma‘rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg‘a surilgan g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma‘rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va etlatlar o‘rtasida bag‘rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko‘z qorachig‘iday asrashga doimo da‘vat etib turadi.

Fursatdan foydalanib, taniqli tarixchi olim, AQSHdagi Michigan universiteti professori, vatandoshimiz Temur Xo‘ja o‘g‘liga mamlakatimiz tarixi, jumladan, jadidlar merosi bilan bog‘liq noyob hujjatlarni O‘zbekistonga taqdim etayotgan uchun minnatdorlik bildiraman.

Bugungi nufuzli anjuman har birimizni ma‘naviy uyg‘oqlik va ogohlikka chorlab, qalblarimizda ulug‘ ajdodlarimizga xos azmu shijoat tuyg‘ularini yuksaltirishga, xalqlarimiz va davlatlarimiz o‘rtasida o‘zaro do‘stlik va qardoshlik ruhini, ilmiy-madaniy aloqalarimizni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi, deb ishonaman.

Siz, muhtaram anjuman ishtirokchilariga sihat-salomatlik, yangi ijodiy yutuqlar, konferensiya ishiga esa muvaffaqiyat tilayman.

Shavkat MIRZIYOEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

MA‘NAVIY UYG‘OQLIK, BIRDAMLIK VA QARDOSHLIK RUHI

Toshkentda “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya o‘z ishini boshladi.



Tadbir Milliy mass-mediani qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashabbusi bilan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va Turkiy davlatlar tashkiloti ko‘magida tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan murojaatini Prezident maslahatchisi —

spichrayter Xayriddin Sultonov o‘qib eshittirdi.

Global geosiyosiy vaziyatdagi jaryonlar ta‘sirida xalqlarning ong-shuuri-da yuz berayotgan o‘zgarishlar hamda buning natijasida yosh avlodning milliy tariximizni o‘rganishga bo‘lgan talabini oshirishi konferensiyaning dolzarb ahamiyatini belgilab berdi.

O‘zbekiston Prezidenti o‘z chiqishlarida bir necha bor ta‘kidlaganidek, o‘z zamonasining ilg‘or vakili bo‘lmish jadidlar o‘ta murakkab bir sharoitda milliy

uyg‘onish va taraqqiyot g‘oyasi bilan maydonga chiqdi. Ularning tashabbuslari hamda ezgu amallari jamiyatda chuqur aks sado berdi va qudratli kuchga aylandi.

Qolaversa, davlatimiz rahbari jadic bobolarimizning gumanistik g‘oyalarini yuksak baholar ekan, erkin fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurishda ularning tamoyillariga tayanishimiz lozimligini qayd etgan.

Davomi 2-betda

DOLZARB MAVZU

Inson dunyoga kelar ekan, o‘z oldiga chiroyli hayot kechirish, farovon yashash, munosib turmush tashkil etish, birovdan kam bo‘lmaslik, o‘zining moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini to‘la-to‘kis qondirish uchun tinmay harakat qiladi. Bu yo‘lda o‘zining barcha imkoniyatlarini ishga soladi. O‘qiydi, izlanadi, kimlardan maslahat oladi. Yana ayrim kishilar esa bu borada o‘z maqsadlariga erishish uchun turli qing‘ir yo‘llardan foydalanadi, jinoyat ko‘chasiga kiradi, jamiyat tomonidan qabul qilingan ma‘naviy, huquqiy me‘yorlarni pisand qilmaydi.

ISTE‘MOLCHILIK KAYFIYATIDAN YARATUVCHANLIK MUHITI SARI

Bularning bari har birimizdagi iste‘molchilik kayfiyati bilan bog‘liq holatlardan iborat. Halol mehnat, pok niyat, sabr-qanoat bilan faoliyat ko‘rsatgan vatandoshlarimiz o‘z iste‘molchilik kayfiyatining me‘yorlari, chegaralarini biladi. Nafsi hakalok otgan, boridan qoniqmaydigan, boylik ortidan quvadiganlar uchun esa bunday me‘yorlar hech qanday ahamiyatga ega emas.

Biz bugun yangi O‘zbekistonda barpo etar ekanmiz, odamlarda iste‘mol madaniyatini oshirishga alohida ahamiyat berishimiz lozimligi barchaga ayon bo‘lib turibdi. Bu narsa

yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 65-moddasida ham o‘zining ifodasini topgan. Jumladan, unda qat‘iy belgilab qo‘yilgani kabi fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlari rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoit yaratadi, iste‘molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi.

Davomi 3-betda



ZAKOVAT

OLYI TAFAKKURDA SARHAD YO‘Q
YOSHLAR O‘RTASIDA MAHALLALARARO “ZAKOVAT”
TURNIRINING RESPUBLIKA BOSQICHI YAKUNIGA YETDI



Avvallari “Zakovat” deganda oynai jahonda ko‘rganimiz – torgina xonada 10-15 bilimdon qurshovida stol atrofida o‘tirgan 6 kishilik jamoaning savollarga javob berishi tushunilardi. O‘yinning bunday ko‘rinishi ham o‘ziga xos zavqli va qiziqarli kechgan, albatta. Biroq bugun manzara butunlay boshqacha. “Zakovat” intellektual o‘yining bir necha tarmog‘i, ko‘rinishi paydo bo‘ldi. Davlat tomonidan katta mablag‘ ajratilib, intellektual musobaqalar mahallalargacha kirib bordi.

Davomi 5-betda

SANOAT

XORIJDA EMAS, FARG‘ONADA ISHLAB
CHIQRILGANI AFZAL

Farg‘ona viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishbilmonlik muhitini yaxshilash yo‘lidagi hayotbaxsh islohotlar o‘z samarasini bermoqda. Natijada, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan sanoat korxonalari, tadbirkorlik subyektlari salmog‘i oshdi, minglab yangi ish o‘rinlari yaratildi.



Bugungi kunda viloyatga investitsiya kiritgan mamlakatlar soni 44 taga, investitsiya kiritilgan korxonalar 180 taga yetdi. 2023-yilning o‘tgan davrida bu yo‘nalishlariga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya hajmi 436,6 million dollarni tashkil etdi. To‘qimachilik, neft va gaz, qurilish materiallari ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish sohaslarida ishga tushirilgan yangi loyihalar soni kundan-kunga ortmoqda.

Qo‘shitepa tumani shu kunga qadar agrar hudud hisoblanar, yirik sanoat korxonalari yo‘q edi. Sanoat ishlab chiqarishi borasida hududning viloyatdagi ulushi bor-yo‘g‘i 1,1 foizni tashkil qilgan. Bugungi kunda bu boradagi ko‘rsatkich yetti foizdan oshdi. Sanoat yo‘nalishida tashkil etilgan 391 korxonadan shu kunga qadar 2,3 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 115,2 foiz ko‘p.

Davomi 4-betda



yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



MA'NAVIY UYG'UQLIK, BIRDAMLIK VA QARDOSHLIK RUHI

Boshlanishi 1-betda

Anjumanda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yordamchisi Saida Mirziyoyeva so'zga chiqdi. Turli mamlakatlardan konferensiyaga tashrif buyurganlariga minnatdorlik bildirib, mamlakatimiz uchun eng muhim mavzulardan biri — millat ta'lim-tarbiyasi masalasini muhokama qilish va O'zbekistonda jadidlar boshlagan ishlarni davom ettirish vaqti allaqachon yetib kelganini ta'kidladi.

Jadidlarning g'oyalari, ularning orzu-intilishlari Prezident Shavkat Mirziyoyevning siyosatida o'z aksini topmoqda, desak haqiqatdir. Davlat rahbari yetakchiligidagi yangi O'zbekiston jadid bobolarimiz orzu qilganidek, dunyoviy huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini bunyod etish, sifati ta'lim tizimini yaratish, so'z erkinligi va ochiqlikni ta'minlash yo'lidani dadil odimlamog'da.

Saida Mirziyoyeva alifboni isloh qilish masalasining ahamiyatiga ham e'tibor qaratib, o'tgan yillar davomida milliy alifbomizni isloh qilish borasida ko'plab fikr-mulohazalar bildirilgani, qizg'in bahs-munozaralar bo'lib o'tgani, ammo masala hamon ochiq turganini qayd etdi.

Konferensiyada Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev, Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti bosh kotibi Sulton Rayev, Xalqaro Turkiy akademiyasi prezidenti Shain Mustafoyev, Turkiy madaniyat va meros xalqaro jam'armasi prezidenti Aktota Rainqulova hamda AQSH, Germaniya, Niderlandiya, Ozarbayjon, Turkiya, Shvetsiya, O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va Yaponiya singari



mamlakatlardan taniqli olimlar qatnashmoqda. Anjumanda jadid ma'rifatparvarlarining g'oyalarni konseptual jihatdan o'rganish, tahlil va muhokama qilish hamda ularni tizimlashtirishga e'tibor qaratildi.

Jadidlar tomonidan XX asrning birinchi choragida yaratilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish orqali ularning Turkistonda milliy davlatchilik rivojiga qo'shgan hissasini o'rganish, jadidlar faoliyati va g'oyalarni dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat bunyod etish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilmoqda.

Konferensiya doirasida jadidlar va umuman, jadidchilik harakati, rivojlanishi, qadriyatlar uchun kurashishi, bostirilishi va yangi O'zbekiston zaminida ushbu g'oyalarning qayta dunyoga kelishiga bag'ishlangan "Xotira yo'lagi" ekspozitsiyasi taqdim qilindi.

Konferensiya 12-dekabr kuni ham o'z ishini davom ettiradi.

Norgul ABDURAIMOVA,
O'tkir ALIMOV,
O'ZA muxbirlari

BOJXONA

KATTA IQTISODIY IMKONIYATLAR MAKONI

Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar bojxona xizmatlari rahbarlarining Toshkent yig'ilishi ishtirokchilari Bojxona qo'mitasining Bojxona rasmiylashtiruv markazi va Markaziy bojxona laboratoriyasi faoliyati bilan tanishdi. Majmuada Ma'lumotlarni qayta ishlash markazi, Markazlashtirilgan masofaviy elektron deklaratsiyalash posti, Call markaz, Targetlash va xavflarni monitoring qilish boshqarmasi tashkil etilgan.

— Bojxona qo'mitasida tashkil etilgan muqobil yo'q yana bir markaz — Targetlash va xavflarni monitoring qilish boshqarmasidagi axborot tizimlarining xorijiy, jumladan, Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo qator davlatlar bojxona xizmatlari axborot tizimlariga integratsiya qilingani Tashkilot doirasida "Yangi iqtisodiy imkoniyatlar hududi"ni barpo etishga munosib hissa qo'shmoqda, — deydi qo'mita raisi Akmalxo'ja Mavlonov. — Bu yerda Ozarbayjon, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston bojxona xizmatlari bilan tuntu kun o'zaro tezkor ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yilgan.

2023-yilning 11 oyida rasmiylashtirilgan jami 1 millionga yaqin deklaratsiyaning barchasi xavflarni boshqarish tizimi orqali qayta ishlani, xavf aniqlangan 60 mingga yaqin deklaratsiya bo'yicha byudjetga 80 million dollardan ortiq ekvivalentidagi qo'shimcha to'lovlar undirilgan. Shuningdek, 83 foiz deklaratsiya soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirilgan, eksport deklaratsiyalarining 81 foizi esa inson omilisi amalga oshirilgan.

Markaziy bojxona laboratoriyasi Jahon bojxona tashkilotining Mintaqaviy bojxona laboratoriyasi maqomini olgan. Eng muhimi, bunday laboratoriyalar dunyo bo'ylab atigi 10 ta davlatda bor xolos.

Bugungi kunda laboratoriya to'qimachilik mahsulotlari, polimer va undan tayyorlangan mahsulotlar, tamaki va nikotin moddasi saqlovchi mahsulotlar, genetika modifikatsiyalangan organizmlar, ozon qatlami buzuvchi moddalar, metall va metall qotishmalari, alkaloid mahsulotlar, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va kuchli ta'sir etuvchi doridarmon preparatlarini amalga oshirish uchun zarur qurilmalar bilan jihozlandi. Bu yerdagi ekspertiza sinov natijalari mintaqa miqyosida tan olinadi.

170 milliondan ortiq aholini qamrab olgan Turkiy davlatlar tashkiloti hududi katta iqtisodiy imkoniyatlar makoni hamdir.

O'zbekiston TDTga a'zo bo'lib kirganidan buyon o'tgan to'rt yil davomida a'zo davlatlar bilan tovarlar

tashqi savdo aylanmasi hajmi 23 foiz, eksport va import tovarlari bilan harakatlanayotgan transport soni 65 foiz ortdi.

Bugun Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Vengriya tadbirkorlari bilan hamkorlik qilayotgan xo'jalik subyektlari soni 12 mingga yetdi.

2022-yil noyabr oyida Tashkilotning "Turkiy sivilizatsiyaning yangi davri: umumiy taraqqiyot va farovonlik sari" shiori ostida bo'lib o'tgan Samarqand sammitida davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, tuzilmaga a'zo mamlakatlarning o'zaro tovar aylanmasi umumiy tashqi savdoning atigi 4 foizini tashkil etadi, qolgan esa uchinchi davlatlar ulushiga to'g'ri keladi, bunday holat esa hech kimni qoniqtirmaydi.

Shu bois, TDT doirasidagi hamkorlikning savdo-iqtisodiy poydevorini mustahkamlash, global logistika zanjirlari va transport yo'laklarini rivojlantirish, yagona tranzit tarmog'ini shakllantirishda bojxona idoralarning o'zaro hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bu borada Samarqand sammitida muhim qadam tashlandi — Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar hukumatlari o'rtasida soddalashtirilgan bojxona yo'lagini joriy etish to'g'risida bitim imzolandi.

Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida bojxona hamkorligini yanada takomillashtirish masalasi ham yig'ilishda batafsil muhokama qilindi. O'zbekiston Tashkilotga a'zo davlatlarning bojxona xizmatlari rahbarlari kengashini tashkil etish va uning nizomini tasdiqlash taklifini ilgari surdi. Ushbu nizom loyihasi ham Bojxona qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan.

Kun tartibidagi dolzarb masalalardan yana biri — Turkiy davlatlar tashkiloti hududida yagona tranzit tarmog'ini shakllantirish. Bunga esa, avvalo, dunyo miqyosida TIR konvensiyasining 2021-yil maydan kuchga kirgan elektron tartiboti — eTIR xalqaro

tizimiga barcha mamlakatlar ulangan taqdiridagina erishish mumkin.

Mazkur xalqaro tizim tartiboti bojxona rasmiylashtiruv vaqtini qisqartirishdan transport xarajatlarni kamaytirishgacha bo'lgan qator afzalliklarga ega.

Ushbu xalqaro tizimga Ozarbayjon, O'zbekiston va Gruziya qo'shilgan bo'lib, 2022-yil dekabr oyida dunyoda ilk bor Ozarbayjon va O'zbekiston birinchi eTIR tashuvini amalga oshirgan.

Mazkur yangilik jahon biznes hamjamiyati tomonidan qizg'in qarshi olingan va nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan keng e'tirof etilgan.

Jumladan, BMT, Yevropa iqtisodiy komissiyasi va Turkiy davlatlar tashkiloti rasmiy saytlarida mazkur loyiha Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlari o'rtasida yuk tashish sharoitlarini yaxshilash g'oyasining haqiqiy timsoli deya baholangan. eTIR tartiboti Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlarni to'liq qamrab olsa, yuklar to'g'risida oldindan ma'lumot olish va o'zaro almashishni, bojxona tartibotlari va davlat chegaralarini kesib o'tishni tezlashtirishga, mamlakatlarning eksport va tranzit salohiyatini oshirish, ishonchli va xavfsiz transport yo'laklarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bois, O'zbekiston eTIR tashuvlari bo'yicha mintaqaviy o'zaro hamkorlikka xizmat qiluvchi eksportlar ishchi guruhini tashkil etish taklifini ilgari surdi.

Turkiy davlatlar tashkiloti a'zolari bojxona xizmatlari rahbarlarining Toshkent yig'ilishida xavflarni boshqarish tizimini takomillashtirishda tajriba almashish, tashqi savdo tovarlari bo'yicha aniqlangan xavflar haqida axborot almashinuvini yo'lga qo'yish masalasi ham ko'rib chiqildi.

Tomonlar shu maqsadda Bojxona qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlarning bojxona ma'muriyatlari o'rtasida xavflarni boshqarish sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitim loyihasini muhokama qildi.

Shuningdek, tashkilot doirasida bojxona xizmatlarining ekspertiza va tadqiqotlar sohasida o'zaro hamkorligini kengaytirish yuzasidan ham fikr-mulohaza almashildi.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

HUDUDLAR HAYOTI

TARIX O'Z JOYIDA, AMMO QUDUQ YANGI

Dehqonobod tumani markazidan qirq kilometr olisda joylashgan Tog'aytemir mahallasidagi obodonchilik ishlari haqida bir oz avval gap-so'zlar quloqqa chalina boshladi. Rosti, bu gaplar bo'rttirib aytilayotgandek tuyulgan. Yaqinda mahallada bo'lib, "Obodxonadon — obod ko'cha — obod mahalla" dasturi doirasida bajarilgan amaliy jarayonlar bilan tanishdik.

Baland tepalik. Bunyod etilganiga ellik yildan oshgan ichimlik suv havzasi ancha yaroqsiz holga kelib qolgan. Bu qishloq odamlari sunning qadriini yaxshi biladi. Har tomchisini behuda sarflashni ko'p ham xush ko'rmaydi. Axir o'ttiz chaqirim naridan kelirilgan obiyotning har tomchisida hayot aks bo'lgan yoshu qariga birdek ayon.

Yaqinda eski havza buzib tashlanib, yangisi qurilishi boshlab yuborildi. Erta tongdan ishga kirishgan quruvchilar nonushta qilishga shoshilmaydi. Bir-ikki marta azon pallada choy qaynatib, har doimgidek hozirlik ko'rib, dasturxon tuzatgandi, qishloq oqsoqollaridan yaxshigina tanbeh eshitdi. Shu bo'ldi-yu, boshqa bu yerda nonushta uchun ham, tushlik yoki kechki ovqat uchun ham ovora bo'lishga hojat qolmadi. Har kuni kimdir ertalab, kimdir peshinda, yana biron kechki payt dasturxon yozib, ularni mehmon qiladi. Bundan mamnun ustalar ham astoydil ishlaydi. Qishloqning azaliy urfiga qoyil qolib, hamjihatligiga havasi ortadi.

Bugun ham Toshniyoz ota ikki nabirasiga yeguliklar ko'tarib, ishchilar oldiga hormangga keldi. Ular bilan birga choy ichib, olis-yaqindan suhbatlashdi. Ustalariga bu yerlarga ichimlik suv olib kelish tarixi haqida so'zlab berdi.

— Qishlog'imizning nomi ham aynan suv bilan bog'liq, — deya bir oz tabassum bilan so'z boshlaydi ota. — Azaldan ota-bobolarimiz asosan, chorvachilik bilan shug'ullangan. Shu bois, qaysi joyda yaylov keng, chorva uchun qulay bo'lsa, o'sha yerga joylashgan. Bu qir-adirlarning adog'i yo'q. Shularni hisobga olib, aynan shu yerni manzil qilishgan. O'sha damlarda chorvani sug'orishga suv topilsa-da, odamlar ichishiga yaroqsiz bo'lgan. Bu yaqin orada biror chashma yo'q. Izlagan imkon topar deganlaridek, aholi orasidan Tog'aytemir degan alp yigit suv topish uchun ishga kirishadi.

Qo'lga ketmon olib quduq qazishni boshlaydi.

Aytishlaricha, mo'g'ullar bostirib kelgan vaqtda ham ishdan to'xtamay, quduqni oxiriga yetkazgan. Quduqdan bir necha asrlar davomida shu yerlik odamlar foydalandi. Bu manzil ham shu kishining nomiga atab Tog'aytemir qishlog'i, deb qo'yilgan. Quduq hozir ham bor. Keyinchalik, o'tgan asrning yetmishinchi yillarida o'ttiz-qirq chaqirim naridagi chashmadan quvur orqali mana shu yaqinda buzilgan hovuzga suv keltirildi. Ammo vaqt o'tishi bilan bu zaxira havza eskirib, suv sizib ketadigan bo'ldi. Bundan tashqari, aholi ko'payishi natijasida to'planadigan suv kamlik qilib qoldi. Baraka to'pishsin, bugun katta havza qurib bitkazildi.

“AYTISHLARICHA, MO'G'ULLAR BOSTIRIB KELGAN VAQTDAM HAM ISHDAN TO'XTAMAY, QUDUQNI OXIRIGA YETKAZGAN. QUDUQDAN BIR NECHA ASRLAR DAVOMIDA SHU YERLIK ODAMLAR FOYDALANDI. BU MANZIL HAM SHU KISHINING NOMIGA ATAB TOG'AYTEMIR QISHLOG'I, DEB QO'YILGAN. QUDUQ HOZIR HAM BOR. KEYINCHALIK, O'TGAN ASRNING YETMISHINCHI YILLARIDA O'TTIZ-QIRQ CHAQIRIM NARIDAGI CHASHMADAN QUVUR ORQALI MANA SHU YAQINDA BUZILGAN HOVUZGA SUV KELTIRILDI.

Bu esa odamlarning og'irini yengil qilib, tashvishini aritadi.

Yangi suv havzasi Dehqonobod kaly zavodi homiyligida barpo etildi. U 150 metr kub sig'imiga ega. Bu butun mahalla aholisining ichimlik suvga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yetadi.

Yaxshi kunlar keldi...

Tursun ota mahallaning eng keksalaridan biri. Hozir salkam to'qson yoshda. Otaxon hudud tarixini yaxshi biladi. Shu

bois, tilida doim shukronalik. Nabiralarga har doim ibrat bo'lsin, degan maqsadda, xotirlagisi kelmasa-da, bolaligidagi o'sha mash'um kunlarni gapirib beraveradi. Urush yillari, undan keyingi azobli kunlar, bir burda non uchun qancha kishilar qurbon bo'lganini yodga olib, yuragi eziladi. Yoshlarni bugungi dorulomon kunlar qadriga yetishga chorlashdan charchamaydi.

...1962-yil bahori edi. Bu fasl Tog'aytemir qishlog'i uchun musibatli keldi. O'sha qaro kunni hali-hanuz kekka avlod vakillari unutmaydi. Aprel oyi edi. Qishloq ahli, asosan, soyga yaqinroq joyda uy qurishgandi. Odatdagi bahorning yomg'irli kunlari. Hamma o'z uyida panalab o'tiribdi. Sharros yog'ayotgan yomg'ir birpasada yomg'irda do'lg'a aylandi. Uzoq muddat bo'lmasa-da, lekin qisqa vaqtda yer oppoq qor qoplagani kabi do'l bilan to'ladi. Do'l qatlami balandligi chamas bir metrga yaqin bo'lganini aytishadi. Havo iliq bo'lgani bois, yog'ingarchilik to'xtash bilan muz parchalari kabi turgan do'l bir zumda erib, kattagina tosh-qinni keltirib chiqaradi. Hamma yoqni sel



mashtirilib, 7,2 kilometr elektr simlari tortildi.

— Tog'aytemir mahallasining to'qson yillik tarixini biladigan odam sifatida aytaman, bu yaqin tarixda bunday obod va farovonlikni ko'rgan emasman, — deydi Tursun bobo Normo'minov. — Kim nima desa desin, xalqimiz uchun yaxshi kunlar keldi. Ayniqsa, nabiralarning peshonasi besh qarich ekan-da. Ilohim, biz ko'rgan yomon kunlarni bular ko'rmasin. Shunday uzoq qir-adirlar orasidagi qishlog'imizga e'tibor qaratilib, yaxshi yashashga sharoit yaratib berilgani uchun doimo duodamiz.

“Sinfonalarimiz issiq bo'ldi”

Obodonchilik ishlaridan qishloqdagi 5-maktab ham chetda qolmadi. Bir necha yillardan buyon maktabda isitish tizimi ish-lamasligi oqibatida qishda dars o'tish ancha mushkul edi. Ota-onalar ham farzandlari salomatligini o'ylab o'qishga jo'natishni xohlashmas, maktab rahbariyati imkoniyat yaratishga ilojisiz edi.

Endi isitish pechlarini yangilanib, butun tizim ta'mirdan chiqarildi. Ko'mir yoqilg'isi keltirilib, ishga tushirildi.

— Issiqqina sinfonalarda bilim olishning gashti o'zgacha, — deydi maktabning 10-sinf o'quvchisi Gulsevar Imomova. — Ancha yillardan buyon qish boshlanishi

bilan maktabga borishdan xavotirlanardik. Borgan kunimiz kimdir betob bo'lishi aniq edi. Bu fasl yakuniga yetguncha biror mar-ta sinfimiz to'liq bo'lmasdi. Endi sovuqdan qo'riqib dars qoldirish yo'q. Yaxshi sharoit bor joyda yaxshi bilim beriladi. Biz ham bu sharoitdan unumli foydalanib, chuqur bilim egallaymiz.

Viloyat hamda tuman hokimligi tashab-busi bilan mahalladagi kollejning bo'sh tur-gan xonasi mingdan ortiq badiiy kitoblar bilan to'ldirilib, shinamgina kutubxona ochildi. Bundan mamnun odamlar ayozning uzun tunlarini mutolaa bilan o'tkazishni odat qildi. Kattalar o'rnagi bolalarga-da yuqdi.

“Ayollar daftari” bo'sh qoldi

Dehqonobod kaly zavodi ma'muriyati tashabbusi bilan mahalladagi kollejning bo'sh qolgan ustaxonasi yangi tikuvchilik markazi-ga aylantirildi. Mahallada "Ayollar daftari"da turgan jami yigirma xotin-qizga subsidiya asosida tikuv mashinasi berildi. Natijada markazning o'zida ular ish bilan ta'minlanib, alohida ro'yxatdan chiqarildi. Endi aynan zavod uchun buyurtmalar qabul qilib, belgilan-gan shartnoma asosida ish bajaradi. Buning ortidan esa daromadli bo'lishadi.

— Mahallamiz ayollarining ko'pchiligi uyida kasanachilik bilan mashg'ul,

— deydi "Tog'aytemir" MFY xotin-qizlar faoli O'rozgul Jo'rayeva. — Asosan, kashatichilik, gilamdo'zlik, quroqchilik bilan mashg'ul bo'lib, shuning ortidan mablag' ishlab topadi. Tikuvchilik markazi-da bandligi ta'minlangan ayollar ilgari ijtimoiy daftarga kiritilgandi. Bugun esa barchasi ro'yxatdan chiqarilib, ishsizlar soni kamayishiga erishildi. Bundan tashqari, qator maishiy xizmat obyektlari ham qurilib, foydalanishga topshirildi. Bu esa o'ttizga yaqin fuqaroning ishli bo'lishiga zamin yaratdi.

— Ancha yillardan buyon o'z ishim bo'lishi, daromad topib, oilamga nafim tegishli orzu qilib yurardim, — deydi tikuvchilik markazi ishchisi Iqlimov Xurramova. — Mana, tikuvchilik qiladigan bo'ldim. Uch farzandim bor. Turmush o'rtog'im yonida turib, bolalarimni ilmiy qilishga intilyapman.

Albatta, odamlarning kayfiyati yaxshi bo'lsa, yashash tarzida farovonlik, oilada xotirjamlik bo'ladi. To'y va bayramlar quvonchi tatiydi. Yaqinda 8-dekabr — Konstitutsiyamiz qabul qilingan kun munosabati bilan Tog'aytemir mahallasida katta shodiyona bo'ldi.

Tantanalarda avvalida mahallaning yangi binosi, kutubxona, tikuvchilik markazi ochildi. Shundan so'ng milliy sport turi — kurash bahslariga start berildi.

Polvonlarning olqishlar ostida o'tgan bahsida kuchlarni aniqlash ancha mushkul bo'ldi. Qashqadaryo viloyati hokimi bosh sovrini kasblik Jo'ra polvonga nasib etdi.

Keng maydonda tashkil etilgan ko'pkari esa haqiqiy mardlar o'yiniga aylandi. Viloyat hokimi sovrini uchun kechgan bahslarda qo'shni Surxon-u Samarqanddan kel-gan chopag'onlarning abjirg'i olqishlarga sazovor bo'ldi. Bosh sovrin nishonlik Jalil polvonda ketdi.

“Obodxonadon — obod ko'cha — obod mahalla” dasturi doirasida nafaqat Tog'aytemir mahallasida hududi, balki odamlarning ham ko'ngli obod bo'ldi. Yangicha qiyofaga kirgan bu manziling yoshu qarisi turmushidan roziligini ortib, katta bayram qilishib, dillarini xushnud etdi. Bu esa dastur doirasidagi asosiy maqsadga erishilganini anglatadi.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

DOLZARB MAVZU

ISTE'MOLCHILIK KAYFIYATIDAN YARATUVCHANLIK MUHITI SARI



Abdullaxil MAVRULOV, tarix fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Demak, mamlakatimizda iste'molchilarning huquqlari qonun bilan kafoliatlangan. Ham biologik, ham iqtisodiy, ham ma'naviy ehtiyojlarimizni qondirish uchun bizga, eng avvalo, sog'lom iste'molchilik madaniyati kerakligi ham kunday ravshan. **Iste'molchilik inson hayot tarzining eng ustuvor jihati ekanini e'tirof etsak-da, iste'mol qilinish narsalarining o'zini qoplash uchun ularni yaratish ham kerakligini unutsak, ertangi kunimiz nima bo'ladi?** Bugun ayrim fuqarolar, ayniqsa, yoshlarimizda hayot faqat iste'molchilikdan iborat, degan soxta kayfiyat hukm surayotgani ham bor gap. Shu o'rinda Prezidentimizning quyidagi fikrlariga quloq tutishni tavsiya etamiz: **"Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlariga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchaymoqda. Faqat o'zini o'ylash, hayotga, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati singari illatlar turli yo'llar bilan aholi, ayniqsa, hali "oq-qora"ni farqlay olmaydigan yoshlar ongiga singdirilmoqda. Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiberjonyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi tobora ortib bormoqda"**.

Darhaqiqat, hayotni faqat iste'molchilikdan iborat, deb bilish illatdan boshqa narsa emas. Bugun yanada katta kuch bilan avj olib borayotgan ana shu iste'molchilikdan iborat kayfiyatni yaratuvchanlikdan iborat muhitga o'zgartirib, bu bizing tobora rivojlanib, yanada takomillashib borayotgan taraqqiyotimiz uchun sezilarli to'siqqa aylanishi mumkin. Axir biz, o'zbeklar butun dunyoda yaratuvchanlik muhitiga asos solgan, barchani o'z ixtiro va kashfiyotlari bilan hayratlantirgan xalqimiz, millatimiz. Fikrimizni isbotlash uchun, keling, ayrim misollarga murojaat qilaylik. Masalan, Zaratsoy (Surxondaryo) qoyatosh suratlari yurtimizda bundan 14-15 ming yil avval ilk san'at asarlari paydo bo'la boshlagani, bu madaniyat jahonga mashhur Ispaniyaning Altamira, Fransiyaning Lyasko g'orlari devori suratlari qadrimatidan kam emasligini bugun yoshlarga bildirishimiz ularni yaratuvchanlik kayfiyatining tug'ilishiga sabab bo'lmaydimi?

Yoki bundan 5 ming yil ilgari ajdodlarimiz bronza metall eritish texnologiyasini o'zlashtirgan. Bizing ajdodlarimiz sifatlari bronza olish uchun mis bilan qo'rg'oshtin aralashmasi 9:1 nisbatda, uni yaratish harorati 930-1030 daraja bo'lishini ming yillar avval bilgani yoshlarimizda yangiliklar yaratishga mas'ullik hissini uyg'otmaydimi? Yana bir misol: mamlakatimiz hududi jahon davlatchilik tarixida, shuningdek, shaharsozlik madaniyatida dunyodagi eng qadimiy sivilizatsiyalardan biri hisoblanadi. Masalan, yunon tarixchilari Baqtriyaning "Ming shaharli mamlakat", deb atagan. Haqiqatan, qadimda yurtimizda yuzlab, minglab shaharlar, shahar-davlatlar mavjud bo'lganiga ko'ha noziy guvoh.

Yaratuvchanlik o'zbek milliy davlatchilik tarixining eng muhim, xususiyatli jihatlardan biri. Ko'hna moziyning barcha davrlari kashfiyotlar, ixtiro, yaratuvchanlikdan iboratligi bugun butun dunyoga ayon. Shuning uchun ham o'zbek xalqining ilmiy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy merosi jahon tamaddunining muhim o'zakarlaridan biridir. Birinchi va ikkinchi Renessans davri Markaziy Osiyoda ilm-fan, madaniyat, san'atning, dunyoviy va diniy bilimlar uyg'unligining eng yuksak cho'qqisi hisoblanadi. Mohiyatni aniqlashga, haqiqatni anglashga intilish tufayli ilm-fanning deyarli barcha sohalarida jiddiy sifat o'zgarishlari sodir bo'ldi.

Shu o'rinda bir ibratli misolni keltirish joiz: buyuk olim, mutafakkir Abu Ali ibn Sino o'z

davrida fanni klassifikatsiya qilish, tartibga solish bilan ham jiddiy shug'ullanadi. Bu borada, ayniqsa, uning aqlga asoslangan fan qismlariga oid maxsus traktati nihoyatda qimmatlidir. Unga binoan Ibn Sino o'rta asr musulmon Sharqida shakllangan 35 ta fan sohasiga tavsiflar bergan. Bu fanlarning aksariyati Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston hududida shakllanganini butun dunyo allaqachon e'tirof etgan. Har qanday yangilik, kashfiyot, ixtiro ilm-fan, madaniyat shakllangan va taraqqiy etgan joyda yaratiladi. Bunga yurtimiz hududida barpo etilgan kutubxonalar ham guvohlik beradi. O'rganishlarga ko'ra, o'rta asrlardagi kutubxonalarni saltanat kutubxonalari, shaxsiy kutubxonalar, madrasa va masjidlar qoshidagi kutubxonalarga bo'lish rusum bo'lgan.

Nazarimizda, O'zbekiston tarixining deyarli barcha bosqichlari ilm-fan yo'lida izlanish, yaratishdan iborat bo'lgan. Hoji Ismatulloh Abdullohning izlanishlari natijasiga ko'ra, o'rta asrlarda mamlakatimiz hududida 370 nafar olim yashab, ijod qilgan. Husanxoja Nisoriy esa birgina XVI asrda yurtimiz hududida 288 nafar shoir ijod qilgani haqida ma'lumot beradi.

Ziyrak o'quvchi yuqorida keltirilgan misollarning o'zidan haqiqatan yurtimiz buyuk kashfiyotlar, ixtirolar yurti ekaniga, xalqimiz azaldan ilm-fan, madaniyat, san'atga o'ch bo'lganiga ishonch hosil qildi. Qolaversa, bunday yaratuvchanlik muhiti dinamik mazmunga ega bo'lib, muntazamlik kasb etganidan xabardormiz. Bugun biz yangi O'zbekistonni barpo etib, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'z oldimizga katta maqsad qilib qo'yganimiz. Bu jarayon esa ilm-fan yutuqlarini, buyuk kashfiyotlarni mulqatga amalga oshirishi mumkin emas.

Shuning uchun ham keyingi 6-7 yil ichida davlatimiz rahbarining sa'y-harakati tufayli va jamiyat ijtimoiy talabi asosida, xalqimizning strategik vazifasi sifatida odamlar, ayniqsa, yoshlar orasida yaratuvchanlik muhiti bunyod etilishdan iborat maqsad qo'yildi. Shu asosda yoshlarimiz uchun shart-sharoit yaratildi. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, ayniqsa, oliy ta'limda avval xayolimizga kelmagan tub o'zgarishlar, islohotlar amalga oshirilmoqda.



kechirishga intilar ekan, albatta, bu jarayon uning mavjud moddiy va ma'naviy boyliklardan bahramand bo'lishi asnosida ro'y berishini unutmashlik lozim. Biz mavjud ekanimiz, iste'mol qilamiz. Endi masalaning boshqa jihati g'ayrat beraylik. **Iste'mol umuminsoniy nuqtayi nazaridan sog'lom va nosog'lom bo'lishi mumkin.** Sog'lom iste'mol bizning ayni paytda inson sifatida o'z jismoniy holatimizni normal vaziyatda ushlab turish, amalga oshiradigan xatti-harakatlarimiz davomida yangi kuch-qudratga ega bo'lib turishimiz uchun zarur bo'ladigan qadriyatdir. Bunda biz o'zimiz uchun aynan hozir kerak bo'ladigan moddiy ne'matlarini iste'mol qilishimiz sog'lom iste'molni tashkil etadi.

Nosog'lom iste'mol esa bizni xudbinlikka, faqat o'zini o'ylashga, manfaatparast-

ketgan baxil, qancha shonu sharaflari bo'lsa ham nafsining yog'asini faqirona bir mazallatdan va xorlikdan qutqarolmas.

Faqir va muhtojlikdan saqlanmas fikri ila baxil va xassislik yo'lini tutgan kishilar aql va ifron sohibi sanalmaslar. Zeroki, xassislik soyasida janobi Haqning razzoq va xalqo'lam o'ldig'ini yodlaridan chiqarub, zo'r xalotlarga duchor o'lurlar".

Abdulla Avloniy shaxs tarbiyasida, uning jamiyat taraqqiyotida, millat va mamlakat farovonligida g'ayratsiz kishilarning harakatsizligi katta ziyon ekaniga alohida e'tibor beradi. Shu o'rinda uning **"Raxovat"** masalasi alohida o'rin berganini qayd etish lozim. Xo'sh, raxovat nima? "Raxovat deb tanparvarlik, g'ayratsizlikni aytilur. Umid va sa'yning eng zo'r dushmani raxovaturki, hissiyoti g'ayratparvaronamizni mahv va barbod etar va bir necha ma'yusona fikr va xayolarga duchor va giriftor etar".

Insonda yana bir yomon illat borki, uni bobomiz **"Anoniyat"**, deb ataydi. "Anoniyat deb xudbin, mutakabbir, manmanlikni aytilur. Manmanlik johilona kibru g'ururdan paydo bo'ladurgan eng yomon xulqlarning biridirki, kishini har yerda ma'yus va mahjub qilar. Kerak inson o'zini olamga tonutmasun, kerak bo'lsa olam o'zini tonub olsun. Bu sifati esa yomon xulqlardan huzur qilgan kishilargagina muyassar bo'latur. Kekkeyub o'sib ketgan daraxt yaxshi meva qilmagani kabi kibru va manmanlikdan fazilat hosil bo'lmays. Axloqiy yaxshi insonlar o'zlaridagi fazlu kamolot asarini xalqo'lamga xushxulqlik va tavozu'ila ko'rsaturlar".

"Atolat", "Xasosat", "Raxovat", "Anoniyat" — bu so'zlar bugungi avlodga tushunarsiz ekan hamмага ma'lum. Biroq ana shu illatlar bundan yuz yil avval ham jadic bobolarimizni tashvish va xavotirga solganini, o'sha illatlar, afsuski, bugun ham milliy taraqqiyotimizga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatayotganini, ular nosog'lom iste'molchilikdan iborat kayfiyat shakllanishiga sabab bo'layotganini ko'rishimiz mumkin. Biz bekorga maqolamizga iste'molchilik kayfiyatidan yaratuvchanlik muhiti sari, deb nom bermadik. **Iste'molchilikdan qutulish oson ish emas. Buning uchun inson o'zini o'zi yengishi, o'zi bilan o'zi kurashishga kirishishi lozim bo'ladi.** Buning uchun jamiyatda nosog'lom iste'molchilik moddiyotga hirs qo'yish kulfatga olib kelishi mumkinligini, mazkur holat insoniyat tarixida ming yillar davomida tarixiy tajribadan o'tgani haqidagi ijtimoiy fikrni shakllantirishimiz lozim, deb o'ylayman.

Xo'sh, nosog'lom iste'molchilikdan chiqish uchun nima qilish lozim, bu murakkab vazifani qanday hal qilish mumkin? Albatta, nosog'lom iste'molchilikdan forig bo'lishning yo'llari ko'p. Ayni paytda sog'lom iste'molchilik muhitini yaratish, insonlarni ixtiro, kashfiyotlar jarayoniga yetaklashning, ularning jamiyat hayotidagi ijtimoiy faolligini oshirishning ham imkoniyatlari mo'. **Kishilarni nosog'lom iste'molchilik kayfiyatidan chiqarish va ular uchun yaratuvchanlik muhitini shakllantirishni muhim umummilliy vazifaning ikki, bir-biri bilan uzviy tomoni sifatida qabul qilish mumkin.**

Buning uchun, nazarimizda, quyidagilarga amal qilish lozim. **Birinchi**dan, o'z oldiga yaratuvchanlikdan iborat katta maqsadlar qo'ygan har bir inson, eng avvalo, o'z ishidagi sobitqadam bo'lishi maqsadga muvofiq. Sobitqadamlik, eng avvalo, shaxsdan o'z oldiga to'g'ri va o'zi hamda jamiyat uchun foydali maqsad qo'yishni talab etadi.

Bu qiyin vazifa. Biroq bajarsa bo'ladi. Bugun mamlakatimizda yoshlar uchun o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida yaratilgan shart-sharoitlardan samarali foydalanish, shubhasiz, har bir yigit-qizdan sobitqadamlikni, g'ayratni, masalaga ilmiy asnoda yondashishni talab etadi. "Sobitqadamlik, — deydi Husayn Voiz Koshifiy, — ya'ni azmi qat'iylikdan murid ko'zlangan ish sari dadil qadam qo'yish, bu ish oxiriga yetmaguncha undan voz kechmaslik, bu ishga xalal bergan to'siqlarni yengishda doimo mahkam tushurid. Haqiqatda sobitqadamlik baxtyorlik va barakat daraxtininng samarasi, xurramik foydasining natijasidir. Sabot uzra qadam qo'ygan kishi undan ko'p hosil va manfaatlar oladi".

Ikkinchidan, insonni nosog'lom iste'molchilikdan iborat holatdan chiqarish va unda yaratuvchanlikdan iborat kayfiyatni shakllantirish uchun har birimiz **bedorlik va g'afllat uyqusidan ozod bo'lishimiz** muhimdir. Keyingi 6-7 yil ichida mamlakatimiz rivojlanish, yanada taraqqiyotlashning mulqatga yangi bosqichiga o'tadi. Demokratik, suveren, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat barpo etish bugungi kunda xayoliy orzu emas, real voqeelikka aylandi. Bu jarayon, shubhasiz, yangilikka intiluvchan, jamiyat va davlat manfaatlariga o'z manfaatini uyg'un deb biluvchi millionlab vatandoshlarimizning mehnati, sa'y-harakati bilan yuz bermozina.

Ammo afsuski, hali ham oramizda yangilikni ko'rmasdigan, konservator odamlar, "sen menga tegma, men senga tegmayman", degan boq'beg'amlar borligini esdan chiqarmaslik kerak. Bugun bizga vatandoshlarimizning bedorligi kerak. **Bedorlik nima? Bedorlik jamiyatda bo'lib o'tayotgan voqea-hodisalarga befarq bo'lmagan, ijtimoiy faol, o'ziga va yaqinlariga jonkuyarlik bilan munosabatda bo'ladigan kishilarning ruhiy holatidir.**

O'zbek xalqida "g'afllatdan uyg'otish", degan so'z bor. Buning ma'nosi shuki, bundaylar uchun o'z uyida, mahallasida, tumani, viloyatida, mamlakatida sodir bo'layotgan hodisalarning mulqatga qiziqi yo'q. Uning o'z falsafasi bor. Bu falsafaning ma'nosi esa uning jamiyat bilan ijtimoiylashuvini inkor etadi. Hech narsaga qiziqmaydi. Ular doimo biz bilan birga, ko'zi ochiq, mulqotga kirishishi mumkin, ishtahasi joyida. Biroq u ana shu holatda ruhiy uyquda. Salbiy holatlardan tashvishga tushmaydi, quvonchi vaziyatlarga befarq, jismoniy uyg'ov, ruhiy jihatdan uyquda.

Bundaylarning tevarak-atrofga salbiy ta'sir kuchi sezilarli. Ayrimlar undan o'rmaq oladi: "U ham yuribdi-ku jonini qiynamasdan, dunyoga inson bir marta keladi, yashab qolaylik", deb. Ular bizing yonimizda, atrofigidami. Ana shu g'afllatdagilarni uyg'ota olsak, yoshlarda yaratuvchanlik kayfiyatini shakllantira olamiz. **Uchinchi**dan, nosog'lom iste'molchini yaratuvchan shaxsga aylantirishning yo'llaridan yana biri unga vaqt qadri, fursatni g'animat bilish kerakligini anglatishdir. Bugun vaqt tez aylanmoqda. Odamlar, jamiyatlar, sivilizatsiyalar, davlatlar, siyosiy kuchlar bir-biri bilan murosasiz musobaqaga kirishgan. Fursatni boy bergan, o'zina erinchoqlik qilgan odam boshqalardan ortda qolmoqda.

Avvallari 50-100 yillar davomida yaratilgan yangiliklar bugun 3-5 yilda yangilanmoqda. Dunyo charxpalakdek, o'z qonunlari asosida aylanmoqda. Kechagi texnologiya bugun eskirib bo'ldi. Biz uni ma'naviy eskirdi,

deymiz. Fursatni boy bermaslik uchun esa izlanish, ixtiro va kashfiyotlar qilish kerak.

Tarix — murabbiy. Ana shu murabbiy bizga bugun saboq berib, fursatni boy bermas, deb chaqirib qilyapti. Shu o'rinda bugun milliy rivojlanishimizni muayyan tarzda to'xtatib turishga majbur qilyotgan ayrim qadriyatlariga nisbatan ham o'z munosabatimizni o'zgartirishimiz lozimga o'xshaydi. Masalan, "Musulmonchilik asta-asta", "Peshonangga yozilganini ko'rasan", "O'lmaning tagiga olma tushadi" kabi maqollar ham bizni ma'lum darajada taraqqiyotdan to'sib turganga o'xshaydi.

To'rtinchidan, shaxsning iste'molchilik kayfiyatidan yaratuvchanlik muhitiga o'tishiga tafakkur tarizimidagi islohotlar ta'sirchanlik darajasining pastligi ham ta'sir qilyotganga o'xshaydi. Adolat yuzasidan aytish kerakki, bugungi odamlarimiz dunyoqarashi hatto 6-7 yil avvalgi darajada dunyoqarashidan ham tubdan farq qiladi. Odamlarimizda ijtimoiy faollik darajasi ham, huquqiy, siyosiy savodxonlik ko'tarildi, ularning davlat va jamiyat hayotidagi ishtiroki kengaydi. Bular aslo inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir.

Biroq hali ham ayrim hollarda ba'zi odamlarda konservativ fikrlash tarzi saqlanib qolayotganini ko'rish mumkin. Ular davlat siyosatida va jamiyatda yuz berayotgan tub o'zgarishlarni ko'rib, ko'rmaslikka oladi, o'zlarining soxta, mayda maishiy fikrlari bilan odamlar ongini strategik yo'llardan chalg'itishga urinadi. Bularning bari ular tafakkur tarizidagi oqsoqlik, sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga munosib baho berishdagi fikriy kemtiklikdan boshqa narsa emas.

Bunday shaxslarning jamiyat va o'zlarining yaratuvchanlikdan iborat muhitini siyqalash-tirishga qaratilgan harakatlari ularning aql va dunyoqarash uyg'unligini anglashdagi kamchiligi sifatida baholash mumkin. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf shu bilan bog'liq masalada quyidagilarni qayd etadi: "Aql Haq subhanah va taolo bandaga bergan ne'matlar ichida eng ulug'laridan biridir. Inson zotiq aqli bilan boshqa jonotlardan ustun turadi. Inson o'ziga berilgan aql vositasida inson yetishi mumkin bo'lgan eng yuqori martabalariga erishadi. Ammo aql o'z-o'zidan ishlash ketavermaydi. **Aqlni harakatga soluvchi kuch tafakkurdir. Dunyoda qanchadan-qancha aqlilar bor. Ammo ularning aqlari to'g'ri yo'lga boshlamayapti, yomonliklardan qaytarmayapti"**.

Demak, biz bugun odamlarimizda yaratuvchanlik muhiti shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanimiz, albatta, ular dunyoqarashini mayda maishiy kayfiyatdan, biqlik, soxta vatanparvarlik, bilimdagi sayozlik, harakatdagi turv'chilik, o'zaro munosabatlardagi real vaziyatni xaspo'shlashga qaratilgan ayyorlik kabi salbiy holatlardan tozalashimiz kerak. Bu, shubhasiz, tafakkur tarizimidagi evrilishlar oqibatida yuz beradigan va mamlakatni yaratuvchilar O'zbekistoniga aylantiruvchi kuchdir.

Barchaga ma'lum: moddiy iste'molchilik bilan birga ma'naviy iste'molchilik masalasi ham kun tartibida turgan eng muhim masalalardan biridir. Avval boshidan aytib qo'ylaylik: **Albatta, moddiy iste'molchilikning o'z chek-chegarasi bo'lishi kerak. Ammo ma'naviy iste'molchilik masalasi bunday chegaraga bo'lmaydi.** Biz barchamiz o'zimizning tafakkur tarizimiz, bilim doiramizni, axloqiy siflatlarimizni muntazam ravishda kengaytirishdan manfaatdor bo'lishimiz lozim, deb o'ylaymiz.

Biz nafaqat moddiyotni iste'mol qiluvchilar, ayni paytda ming yillar mobaynida buyuk kashfiyotlar qilgan ulug' mutafakkirlarimiz ilmiy-madaniy merosining ham iste'molchilimiz. Biz ularni qancha ko'p iste'mol qilamiz, shuncha yaxshi. Biroq masalaning boshqa jihati ham bor. Gap shundaki, ma'naviy sohada ham faqat iste'molchilik kayfiyatida bo'lish bizni harakatsizlikka, ijod qiyiyat, yaratish jarayonidan beqonash-tirishga olib kelishi mumkin.

Uchinchi Renessansni barpo etish, dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga kirish, ma'rifatlil davlat qurishdan iborat yuksak vazifalar mavjud ma'naviy-madaniy, ilmiy merosni iste'mol qilishning o'zi bilaningna amalga oshmaydi. Mutafakkirlarimiz ishlarini davom ettirish, zamnaviy talablarga javob beradigan yangi texnika va texnologiyalarni yaratish, shuning oqibatida har birimizning zamnaviy fikrlash tarizimizni takomillashtirib borish, hech shubhasiz, O'zbekistonni iste'molchilar mamlakatidan yaratuvchilar makoniga aylantiradi. Bu — bizing kelaygimiz, yorqin yo'limiz.

www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz_official

yuz.uz_news



OLYI TAFAKKURDA SARHAD YO'Q

YOSHLAR O'RTASIDA MAHALLALARARO "ZAKOVAT" TURNIRNING RESPUBLIKA BOSQICHI YAKUNIGA YETDI

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimizning 2022-yil 20-yanvardagi "Zakovat" intellektual o'yini aholi o'rtasida ommaviy-ma'rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o'yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risidagi qaroriga ko'ra, intellektual o'yinlarni yoshlar va aholining barcha qatlamlari o'rtasida targ'ib qilish, milliy intellektual o'yinlarni shakllantirish, ularni ommalashtirishga e'tibor kuchaydi. Xususan, maktab, oliy o'quv yurtlari va mahalla yoshlari o'rtasida shunday milliy intellektual tanlovlar yangicha ruhdan tashkil etildi.

Kuni kecha "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida Milliy mass-mediana qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi, "Zakovat" intellektual klubi NNT hamda Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida "Zakovat arena" binosida mahalla yoshlari o'rtasida "Zakovat" turnirining respublika bosqichi bo'lib o'tdi. Besh bosqichda o'tkazilgan ushbu turnir finalida 42 ta mahallaning 294 nafar yoshdan iborat jamoasi ishtirok etdi.

Turnir to'rt turdan iborat bo'lib, har bir tur yakuniga yetgach, 3 daqiqalik tanaffus tashkil etildi. Final Abdug'ofur Kamolovning "Zakovat" o'yinlari madhiyasiga aylanib ulgurgan qo'shig'i bilan boshlandi:

*Bu olamning jumbog'i ko'p,
Bu olamning so'rag'i ko'p.
Bu olamda savol cheksiz,
Bu olamda hayot cheksiz...*

Darhaqiqat, bu olamda savol cheksiz. Turnir davomida hayotimizdan olingan, biz e'tibor bermagan turli savollarni eshitib, bunga amin bo'ldik.

Tom ma'noda xalq ichiga kirib borgan o'yin

Yoshlar o'rtasida shu kungacha juda ko'p lab ko'rik-tanlovlar, musobaqalar, fan olimpiadalari o'tkazilgan va ular da har doim ham tashkiliy ishlar ko'ngildagidek bo'lmagan. Qish kunlarida o'tkaziladigan bunday tanlovlarda farzandini qo'llab-quvvatlash uchun kelgan ota-onalar sovuq havoda qolib ketishi, natijalarni kutib, ovora bo'lish holatlari ko'p uchragan. Shunday holat takrorlanishidan ichki xavotir bilan tadbirga borganimizda ota-onalar va jamoalarni qo'llab-quvvatlashga kelgan tomoshabinlar uchun zalning yarmi alohida ajratilib, stol-stullar o'rnatilgan, shirinliklar, choy, qahva paviyonlari tashkil etilganiga guvoh bo'ldik.

— Har bir qadamimiz mahalladan boshlanadi, — dedi turnirning ochilish marosimida so'z olgan "Zakovat" intellektual klubi" nodavlat notijorat tashkiloti rahbari Abdurasul Abdullayev. — Dunyoga kelganimizdan to'rt katta hayotga uchirma bo'lgunimizcha mahallanikimiz. Uzoqlarda yashasak ham qalbimiz mahallamizda qoladi. "Vatan ichidagi Vatan" deb bejiz aytilmaydi. Bugun har bir jamoa o'z mahallasi uchun kurashadi. Har bir stolda o'sha mahallaning sha'ni, obro'si turibdi. Ushbu loyihamiz haqida turli fikrlar aytilgan. Loyihani tashkil etayotganda ko'p o'yiladi, aytilgan barcha mulohazalarni inobatga o'ldik. Qachonlardir ushbu intellektual o'yinlar boshlanganda, hali o'ttiz yillardan keyin ham mana shu "Zakovat" qo'shig'i turnirlarni ochib beradi, maktablarda, oliyog'ohlarda musobaqalar o'tkaziladi, deb niyat qil-



ganmiz. Bugun "Zakovat" katta miqyosli an'anaviy turnirga aylandi. Niyatlarimiz amalga oshdi. Davlatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratildi, katta mablag' ajratildi. "Zakovat" tom ma'noda xalq ichiga kirib bordi.

"Zakovat" dagi zako onalar

Tomoshabinlar bo'lmasida o'yinni kutazarkanmiz, hali bir yoshga ham to'lmagan chaqaloqni ko'tarib o'tirgan onaxon ga ko'zimiz tushdi. U bolani mehr bilan erkalar, shu orada berilayotgan savollarga quloq tutib, yonidagilar bilan javobini muhokama qilardi. O'yinga tanaffus



e'lon qilingach, ishtirokchi formasidagi yoshlarga ayol kelib, bolani onaxonning qo'lidan oldi va shosha-pisha ovqatlanirdi. 3 daqiqalik tanaffus yakunlangach, yana bolani berib, katta zalga kirib ketdi. Qanday kuch yosh bolani onani ushbu maydonga yetaklab kelgani bizni qiziqitirdi va onaxonning yoniga borib, bu haqda so'radik.

— Andijon viloyatidanmiz, qizim "Zakovat" turniriga qatnashyapti, — deydi Xosiyatxon opa. — Uyimizda katta kutubxonamiz bor, mehmon bo'lib kelganlar ko'rib hayron qoladi. Avvaldan "Zakovat"ni oilamiz bilan tomosha qilamiz. "Sizlar ham shunaga o'yinlarda qatnashib, televizordan chiqsanglar, juda xursand bo'laman", derdim bolalarimga. Mana, bugun orzularim ushaldi.

Xosiyatxon opaning ma'lum qilishicha, oilaviy muhit farzandlarining o'z yo'lini topishida muhim o'rin tutgan. Opaning o'zi 32 yildan buyon ta'lim tizimida ishlaydi. Shuncha yillik mehnati qadr topib, "Xalq ta'limi fidoyisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan. Farzandlarining har hammasi oliy ma'lumotli. Oilada kitob o'qishga, ilm-ma'rifatga e'tibor kuchli. Biz yosh bolani "Zakovat"chi onaning fikrlariga ham quloq tutdik:

— Marhamat tumani "Bozorboishi" MFY jamoasi a'zosi, — deydi Nilufar Shokirova. — Uch farzandim bor. O'qituvchi bo'lib ishlayman, turmush o'rtog'im ham o'qituvchi. Qaynata-qaynonam kechagina umra safaridan keldi, uyimizda mehmonlar keldi-ketdisi tingani yo'q, shunday bo'lsa-da, ular meni qo'llab-quvvatlab, finalga yubordi. Bolaligidan Jobir Ahmedov jamoasiga muxlislik qilardim, birorta ham o'yinni o'tkazib yubormas edim. Doim "Zakovat"ga qatnashish katta orzum bo'lgan. Maktabda ham o'quvchilarim bilan klub tuzib, "Zakovat" o'yinlarini muntazam o'tkazib kelamiz. Bu yil 30 yoshga to'laman. Bir qarashda men uchun xuddi yoshlarga berilayotgan barcha imkoniyatlar tugagandek. Lekin aslida bunday emas. To'g'ri, endi yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan tanlovlarda ishtirok eta olmayman. Ammo to'plagan tajribam o'quvchilarim, farzandlarimga asqatishidan quvonaman. Qolaversa, "Zakovat"da ham oliy liga o'yinlarida ishtirok etishim mumkin.

Nilufar Shokirovadan farzand tarbiyasidan ortib, shunday tanlovlarda qatnashish qiyin emasmi, deb so'raganimizda, oilasining qo'llab-quvvatlovi bilan ham ishga, ham farzandlar tarbiyasiga, turli tanlovlarda ishtirok etishga kuch va vaqt topayotganini bildirdi. Bungacha u

"Yosh kitobxon" tanlovida ham bir necha bor ishtirok etib, viloyat bosqichida faxrl o'rinni qo'lga kiritgan. Demak, qiziqish va ishtiroq bo'lsa, hamma narsaning imkoni topiladi.

Umid, hayajon va quvonch yoshlari

Turnir estradamizning yorqin yulduzlari ishtirokida davom etdi. To'rt tur yakuniga yetgach, jamoalar intizorlik bilan natijalarni kuta boshladi. Ishtirokchilar ko'zida umid, qo'rquv, hayajon aks etardi.

Nihoyat, jami 31 ochko bilan Qarshi tumani "Gulliston" MFY jamoasi birinchi o'rinni, Koson tumani "Paxtazor" MFY jamoasi 30 ochko bilan ikkinchi, poytaxtimizning Olmazor tumani "Beruniy" MFY jamoasi esa 27 ochko bilan uchinchi o'rinni egalladi.

G'olib jamoa 100 million so'm, ikkinchi o'rin 60 million so'm va uchinchi o'rin sobholar 40 million so'm bilan taqdirlandi.

Rashid XO'JAMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

GENDER TENGLIK

QIZLARGA KASB-HUNAR O'RGATISH

zamonaviy urf emas, balki hayotiy zarurat



Gulhayo SAMANDAROVA, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti bo'lim boshlig'i

"Mehnatkashlar tovushi" (1918-1921) gazetasida chop etilgan bir maqolada "Yigitlarni yetishtiruvchi, jamiyati bashariyani tarbiya etuvchi xotun-qizlarimizni ta'lim va tarbiyadan mahrum etsak, alarda bo'lg'on iste'dod va o'ng'unliklardan foydalanmasak, bizning holimiz ne bo'lajak? ...Biz o'n milyunli turkistonliklarning yarmindan ko'bini tashkil etgan xotun-qizlarimizni ta'lim va tarbiyadan, ulum va maorifdan mahrum etib, alarg'a ong va fikr bermasak — o'qutmasak bizning holimiz ne bo'lur?" degan so'zlar keltiriladi. Ma'rifatparvar ajdodlarimizni xavotirga solgan ilmsizlik jaholati uzoq yillar davomida qariyb qadriyatga aylanib qolayozdi.

nafar o'quvchi kasbga o'rgatildi. Hududlarda maktab bitiruvchilari uchun "Ta'lim va kasb — 2023" xalqaro ko'rgazmasi tashkil etilib, unga 50 dan ortiq xorijiy oliy ta'lim muassasasi vakillari, 80 mingga yaqin maktab bitiruvchisi jalb etildi. Bu jarayonda, ayniqsa, qizlarning kasb-hunar o'rganishi uchun sharoit yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Chunki kelgusida jamiyatda, oilada o'z o'rniga ega bo'lishi, ro'zg'or aravasini tortishida kasb-hunarning o'rnini katta.

erkak, teng imkoniyat va teng huquqlilik asosida yashayotganidan dalolat beradi. Mamlakatimizning gender tenglik bo'yicha davlat siyosati doirasida 40 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat, jumladan, tegishli qonunlar, Prezident farmon va qarorlari, 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi, Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilindi. Shuningdek, xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'y-



2023/2024-o'quv yilidan boshlab, kasb-hunar egallash istagidagi 10-sinf o'quvchilarining qiziqishi o'rganilib, hududlarda talab yuqori kasb-hunarlarga o'rgatish kurslari joriy etilayotir. Dastlabki bosqichda ushbu tartib zarur kadrlar salohiyati va moddiy-texnik bazaga ega hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi belgilagan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy etildi. Kasbga o'qitish jarayonini boshlashda hozirgi mehnat bozorida qanday mutaxassislarga talab mavjudligini o'rgangan holda yirik korxonalar rahbarlari bilan tizim integratsiyasi yo'lga qo'yildi. Jumladan, Samarqand viloyati Oqdaryo tumanidagi 32-maktabda o'quvchilarni 7-sinfdan boshlab mahalla va tumanda talab yuqori bo'lgan veterinar, agronom, meva-sabzavot quritish bo'yicha mutaxassis, ipakchi, mebelchi, avtomobil ustasi kabi 15 kasb-hunar bo'yicha o'qitish va 2 ta chet

cha respublika komissiyasi, Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi, Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tashkil etildi. 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasida xotin-qizlarga nisbatan kamitishning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qaror qabul qilish bilan bog'liq barcha jarayonda ayollar to'liq va samarali ishtirok etishi uchun teng imkoniyat yaratish belgilangan.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixolog-pedagogik respublika tashxis markazi tomonidan "Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni identifikatsiya qilish va ularga psixologik xizmat ko'rsatishning asosiy tamoyillari" nomi interfaol o'quv-amaliy seminar dasturi ishlab chiqildi. Unda "Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida me'yoriy-huquqiy hujjatlar", "Gender tenglik bo'yicha milliy huquqiy-me'yoriy hujjatlar", "Gender tenglik bo'yicha xalqaro me'yoriy hujjatlar", "Oilaviy zo'ravonlik", "Gender zo'ravonlikni aniqlash va gender zo'ravonlik jabrlanuvchisini identifikatsiya qilish", "Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarga psixologik xizmat ko'rsatishning asosiy tamoyillari" mavzulari qamrab olingan.

“ O'ZBEKISTONDA O'G'IL VA QIZ BOLALAR UCHUN ALOHIDA DARSLAR TASHKIL QILINMASLIGI, BARCHA TENGLIGI TA'MINLANGAN HOLDA DARSLARDA BIRDEK QATNASHISH HUQUQIGA EGALIGI BELGILAB QO'YILGAN. MA'MURIY ISLOHOTLAR NATIJASIDA MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI TIZIMI BIRLASHTIRILDI. BUGUN 10 MINGDAN ORTIQ MAKTABDA 6 MILLION 336 MING 933 NAFAR O'QUVCHI BILIM OLYAPTI. ULARDAN 3 MILLION 178 MING 656 NAFARI QIZLARDIR.



mulkiy huquq va majburiyatlari, aliment majburiyati, bola huquqi, farzandlarning huquq va erkinliklari kabi munosabatlar huquqiy qoidalar bilan tartibga solinishida gender tenglikka amal qilinishi yuzasidan tushunchalar qamrab olingan.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda mamlakat bo'yicha tajriba-sinov tariqasida 2023-yil 1-fevraldan boshlab, 42 tuman (shahar)dagi 126 maktabda 64 ishchi kasb, 21 tadbirkorlik yo'nalishi hamda 10 ta axborot texnologiyalari va "kreativ industriya" yo'nalishi bo'yicha 9,8 ming

tilini o'rgatish yo'lga qo'yilgan. E'tiborlisi, ushbu loyiha doirasida o'quvchilar bu yerda o'qish, kasb o'rganish bilan birga, qo'shimcha daromad topish imkoniyatiga ham ega bo'lmoqda.

Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rnini davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini ko'rish mumkin. Ayniqsa, oila bekasi, rafiqasi, ona bo'lish bilan bir qatorda, jamiyatning turli jabhalarida faoliyat yuritib, yutuqlarga erishayotgan xotin-qizlar soni ortib borayotgani yurtimizda xoh ayol bo'lsin, xoh

Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash qo'mitasi hamda "Dialog" nodavlat notijorat tashkiloti bilan hamkorlikda "Oiladagi zo'ravonlik ko'lamin, davlat va nodavlat tashkilotlarning jabrlanuvchilarga ko'rsatayotgan yordamini aniqlash borasida tadqiqot o'tkazish" loyihasi amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlangan. Shu bilan birga, "Ruhii tushkunlikdan chiqish hamda munosib hayot formulasi" mavzusidagi o'quv-amaliy seminarlarda 350 nafar psixolog trener sifatida tayyorlandi.

UNICEFning mamlakatimizdagi vakolatxonasi ko'magida psixologlarning bolalar ruhiy salomatligi va farovonligini mustahkamlash hamda doimiy malakasini oshirib borish uchun training-space-tashxis.uz platformasi yaratildi. Uning doirasida qisqa muddatli to'rtta malaka oshirish kursi tashkil etildi. BMTning Aholisunoslik jam'armasi bilan hamkorlikda pedagog va psixologlarning o'quvchilar sog'lom turmush tarzi hamda reproduktiv salomatligi bo'yicha bilimni boyitish, metodik qo'llab-quvvatlash va xalqaro tajriba asosida malakasini oshirishga qaratilgan "Sog'lom turmush tarzi va oila" qo'llanmasi o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ishlab chiqildi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish buyuk ajdodlariga munosib avlodni kamol toptirishda katta ahamiyatga ega. Zero, qizlariga ilmini, ma'naviy axloqni singdirgan millatning hayoti tinch va farovon bo'ladi.

Chingiz Aytmatov tavalludining 95 yilligi

Asr oshgan haqiqatlar

Ba'zan muhim bir fikr, inkor yoki tasdiq bilan ham dunyo e'tiboriga tushish mumkin. Asarlari dunyoning olis nuqtalarigacha yetib borgan ulug' yozuvchi Chingiz Aytmatov tegishli "Har bir kishi o'zi haqidagi haqiqatni o'zi aytishi kerak", degan fikr to'g'risida shunday deyish mumkin.

"to'g'ri", texnologiya millatning milliy o'zligini barbot qilayotgani o'ta xavfli jarayon. Har qanday taraqqiyotning yorug' tomoni bilan birga qorong'i tomoni ham bo'ladi. Buni inkor etish qiyin. Inson olamining jozibadorligi uning ko'p ovozliligida ko'rinadi. Dunyo xilma-xilligi bilan qiziq. Shuning uchun inson hayotini standartlashtirish oxir-oqibat individuallikni yo'q qilishi mumkin. Bir madaniyatning gegemonligi hech qachon jahon miqyosida madaniy uyg'unlikka olib kelmaydi. Men yozuvchi, shaxs sifatida bunga tamomila qarshiman. Nafaqat ma'naviy hayotda, balki davlat modelini tanlashda ham milliy o'zligimizni asrab qolishimiz zarur".

Kuzatuvchilar qirg'iz adabiyotini o'z yurtini ko'zda tutib aytgan ushbu jur'atli fikri faqat bir mamlakatga emas, istiqloq yo'lga o'tayotgan boshqa davlatlarga ham taalluqli ekanini e'tirof etgan.

Aytmatov bu darajaga birdaniga erishgani yo'q, albatta. Uning ijodi, adabiyotshunos olim va mohir tarjimon Asil Rashidov ta'kidlaganidek, "o'z-o'zidan, quppa-quuruq zaminda yuzaga kelmadi. Aksincha, bir xalq ikkinchisidan, yosh avlod kexsa avloddan, bir yozuvchi ikkinchi yozuvchidan saboq o'rganib kelgani insoni uning noyob iste'dodi ham mavjud ijtimoiy sharoitda va yangi tarixiy zaminda yuzaga keldi va tez sur'atlar bilan ravnaq topa bildi".

Ha, shunday. Aytmatov adabiyotga qirg'iz adabiyotidagi, tog' va dasht o'lkasi deb nom o'lgan bu qadim tuproqqa yondosh boshqa milliy, xususan, o'zbek, qozoq, qoraqalpog' adabiyotidagi ilg'or tajribalarni chuqur o'zlashtirgan, mag'iz-mohiyatini chaqqan holda kirib keldi, desak xato bo'lmaydi. Muhimi shundaki, Chingiz og'a sobiq tuzumning qon-qonimizga, og'a-shuurimizga singib ketgan mafkuraviy qadriyatlaridan voz kechish payti kelganini boshqa kasbdoshlaridan ko'ra ertaroq payqadi. Buni suhbat va maqolalarida, badiiy asarlarida oshkora bayon eta oldi. Adabiyotshunos olim Q. Bobulov aytganidek, Aytmatov o'zidan oldingi kasbdosh og'alarning yumshoq beshigida ulg'aygan bo'lsa-da, ijodkor sifatida bundan buyon bu beshikda bama'ylixtir yotaverish mumkin emasligini payqagan edi.

Tadqiqotchi olim K. Asanaliyev Aytmatov ijodidagi bir xususiyatni bunday izohlaydi: "Chingiz Aytmatov o'z so'ziga, ijodiga yolg'on aralashmagan, qahramonlariga hech qachon yolg'on bir so'z ham demagan, haqiqat qanchalik og'ir bo'lmasin, uni tag-tugigacha ayta olgan yozuvchilar sirasiga kiradi. Shu jihatdan olib qaraganda, u ayovsiz chinchin, haqiqatchi, rostgo'y yozuvchi. Qahramonlariga nisbatan ayovsizligi yozuvchiga xos og'niyatidan, turmushda uchrab turadigan ziddiyatlarni siypalamay, tarab-butamay aqli-hochi aytilish maqsadidan kelib chiqadi".

Chingiz Aytmatov ijodida ijtimoiy publitsistika salmoqli o'ringa ega. Uning ocherk va esselari, maqola va xatrlari, suhbat va nutqlari "qamrovning kengligi, ma'nosining teranligi, bosiq va ehtirosli fikrlarga boyligi bilan ajralib turadi" (S. Umirov).

Chingiz Aytmatov ijodi xususidagi tadqiqotlarda bir savol ko'p bor takrorlanadi: adib fenomeni qanday paydo bo'ldi va shakllandi? Agar bu fenomen sovet tuzumi cho'qqiga ko'tarilgan bir paytda yuzaga kelgan bo'lsa, nega endi adibga tengdosh, zamondosh boshqa qalam sohiblari bunday yuksaklikka ko'tarila olmadi? Yoki bunga yosh zooteknikning noyob adabiy iste'dodi sababmi?

Bu savolga o'z vaqtida va hozirgacha turlicha javoblar beriladi. Ular orasida adibning ongiga dahshatli tush kabi muhrlangan — otasi To'raqul Aytmatovning nohaq qama-

lishi va otuvga hukm etilishi, bila iztiroblari, "xalq dushmanining og'li" deya o'kintirishlarini sabab qilib ko'rsatish ham bor. Ammo ziyarak kuzatuvchilar e'tibor berganidek, Chingiz og'a bu yovuzlikdan o'z foydasi uchun mutlaqo foydalangan emas. Asarlarida ham, ijtimoiy mavzudagi maqolalarida ham "Men nohaqliklarga duchor bo'lganman, ezilganman, azob chekkanman", degan iddao uchramaydi.

Adib ijodini chuqur tahlil qilgan adabiyotshunos Georgiy Gachev asosiy savol-

ikkinchi xalqqa nisbatan iqtisodiy, ma'naviy zug'umi ham kirib kelgani va yangi makonda o'zini yakka hokim sifatida tutganini e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi. Otasi o'sgan yozuvchining ijodi, dunyoqarashi ana shunday murakkab, aqldirok bilan ham anglab bo'lmaydigan zamon va sharoitda shakllandi, desak to'g'ri bo'ladi.

Shu o'rinda Aytmatovning 1964-yil 12-fevralda Toshkentda o'tkazilgan Osiyo va Afrika mamlakatlari yozuvchilari bilan aloqa o'rnatish qo'mitasi yalpi majlisidan so'ng



AYTMATOV ADABIYOTGA QIRG'IZ ADABIYOTIDAGI, TOG' VA DASHT O'LKASI DEB NOM OLGAN BU QADIM TUPROQQA YONDOSH BOSHQA MILLIY, XUSUSAN, O'ZBEK, QOZOQ, QORAQALPOQ ADABIYOTIDAGI ILG'OR TAJRIBALARNI CHUQUR O'ZLASHTIRGAN, MAG'IZ-MOHİYATINI CHAQQAN HOLDA KIRIB KELDİ, DESAK XATO BO'LMAYDI.



Ahmadjon MELIBOYEV, Chingiz Aytmatov nomidagi xalqaro akademiya a'zosi

Yozuvchining mualliflik umri, boshqa ijodkor tengdoshlari qatori sobiq tuzum tamoyillari barcha-barchaning qon-qoniga singib ketgan yillarga to'g'ri keldi. U adabiyotga hukmron firqa mafkurasini tamoyillari nainki siyosatda, adabiyotda ham yagona oliy qadriyat sifatida ko'klarga ko'tarilgan paytda "qirg'iz adabiyotining uzoq kutilgan mehmoni" sifatida kirib keldi. Dastlabki hikoyalari, milliy mavzuda yozilgan qissalari — "Yuzma-yuz", "Jamila" unga mislsiz shuhrat keltirdi. O'tgan asrning saksoninchi yillari o'rtaoq kelib dunyoning turli mintaqalarida, jumladan, o'z yurtida ham yuz bera boshlagan ijtimoiy-ma'naviy ziddiyatlarga, keyinroq hukmron tuzum tanazzuliga, kutilgan va kutilmagan taloto'plarga, manfaatlarining shafqatsiz to'qnashuvlariga guvoh bo'ldi. Ko'z o'ngida sho'rolar saltanati quladi. Ayni shu yillari mahalliy va markaziy matbuotda uning boshqa adiblar yozishga, muhokama maydoniga olib chiqishga jur'at etmagan mazmundagi o'tkir publitsistik maqolalari e'lon qilindi. Ularda kuchli mantiqiy hayot nafasi boshqa rasmiy "nafas"lar bilan qorishmagan holda ufurib turardi.

Muallif boshidan kechirgan, shaxsan guvoh bo'lgan, ijodkorlik vijdonini bezovta qilgan mavzularni qalamga oldi. Yozuvchilik burchi jim turishga, befarq bo'lishga yo'l bermadi va bu holatni u o'quvchiga ham yuqitirishga harakat qildi. Aytmatovni o'qigan o'quvchining befarq ko'zlari ochilganday, vijdoni uyg'onganday, fikrlari tiniqlik, ko'nglida bedorlik yuz berganday bo'ldi.

O'tgan asrning to'qqoninchi yillari boshida adib muxbirlarning ittifoqdosh respublikalar, jumladan, Qirg'izistonda kechayotgan taloto'pli jarayonlarga munosabati xususidagi savollarga quyidagicha javob bergani ko'plarning yodida: "Qaysi davlat tuzilmasini xohlamaylik, qaysi yo'nalishda harakat qilamiz, eng avvalo, yurtimizning asosiy boyligi bo'lgan xalqimizga nisbatan insonparvar siyosatni tanlashimiz kerak. Davlat shu xalq uchun yaratilgan. To'g'ri, biz boshqalardan o'rganmay turib rivojlana olmaymiz, ko'zlagan maqsadimizga erinishimiz qiyin kechadi, lekin o'rgansak ham ularning tajribasi biz uchun so'zsiz qabul qilishimiz shart bo'lgan tayyor andoza emas. Mening talaslik xamyurtlarim loviya ekib, yoz bo'yi ter to'kib, kuzda hosilini yig'ib olsa-yu, uni hech kim sotib olmasa, xaridordan darak bo'lmasa, bu nima degani? Bozor iqtisodiyotiga shunday boramizmi? Bozor nafaqat puxta hisob-kitob, balki global dunyoviy talabni o'zlashtirishni taqozo qiladigan alohida tizim hamdir. Biz esa ko'pincha tavakkal qilamiz. Jahon tajribasi — bizning yo'limizni ochadigan tajriba. Ha, yo'l bor, ko'p, ulardan qaysi biri ma'qul bo'lsa, shuni tanlashimiz kerak. Bu o'zimizga bog'liq".

Oradan yillar o'tgach, Aytmatov bu fikrini yanada oydinlashtirdi: "Hozirgi rivojlanish

ning javobini quyidagicha izohlaydi: "Chingiz Aytmatov ijodiy keskinlik avj olingan tarixiy maydonda — XX asrning 30-yillaridagi Qirg'izistonda voyaga yetdi. Bir tomondan — kishilar qadimiy ummlar bilan yashayotgan, hali tarix tilga kirmagan, oqinlar doston ayib, afsonalardan so'z o'chadigan patriarxal ko'chmanchi xalq turmushi, ikkinchi tomondan — shimoldan, Rossiyadan, Moskvadan hozirgi jahon sivilizatsiyasi ilg'or to'loqlarini kirib kelishi: sotsializm g'oyalari, industrializatsiya, shahar turmushi, xotin-qizlar teng huquqliligi, rus klassik adabiyoti vakillari Pushkin, Tolstoy, Dostoyevskiylarning ijodiy ta'siri... Chingizning joni va aql-idroki ana shu uzoq davri qamrab olishi kerak edi. U shunday bo'ldi ham: uning asarlari qirg'izlarga ham, ruslarga ham, mexikaliklarga ham — saviyasi turlicha bo'lgan xalqlarga ma'naviy ko'mak bermog'da".

G. Gachevning fikriga qo'shilish mumkin. Biroq bu satrlar sobiq tuzum paytida yozilgani bois, unda bir muhim haqiqat yetishmayotganini sezish qiyin emas. Ha, shimoldan O'rta Osiyoga zamonaviy sivilizatsiya, katta badiiy adabiyot, ilg'or madaniyat kirib keldi, shu bilan birga, bu o'kalarga qizil mafkura qanoti ostida yalpi dahriylik, milliy va diniy qadriyatlarini oyoqosti qilish, tarixni soxtalashtirish, mislsiz qatag'on, bir xalqning

"O'zbekiston madaniyati" (hozirgi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati") gazetasi muxbiri bilan suhbatida aytgan quyidagi fikrlarini yodga olish joiz: "Sharq xalqlari adabiyotidagi progressiv qanotning kuchayib borishiga, ilg'or tendensiyalarning mustahkam ilidiz o'tishiga yordamlashishimiz, adabiyotning hayotbaxsh ta'sirini keng avj oldirish jarayonida Sharq xalqlari adabiyotini, jumladan, O'rta Osiyo va Qozog'iston adabiyotini chinakam xalqchil, progressiv adabiyot darajasiga ko'tarishimiz kerak".

Davra suhbatida siyosiy qutblar hamda dinlar o'rtaosidagi munosabatlarga oid o'ta chigal masalalar o'rta qo'yiladi. Ushbu suhbat sobiq tuzum yashab qolish uchun jon-jahdi bilan kurashayotgan bir paytda bo'lib o'tganini e'tiborda tutmoq zarur. Bu holat Chingiz Aytmatovning suhbat davomida aytgan fikrlarida ham ko'zga tashlanadi: "Nazariymda, bizni biz yerga to'plagan qandaydir tarixiy kuch borligi to'g'risida gapirish o'rninga o'xshaydi. Nimadir turli diniy e'tiqodga amal qiluvchi odamlarni xuddi bizning bugungi uchrashuvimizdek, birlashishga chorlavolamoqda. Bora-bora bunday uchrashuvlar odatiy holga aylanib qoladi, ammo o'shanda ham biz — sovet jamoatchiligi vakillari uchun ular favqulodda muhim ahamiyat kasb etave-radi. Buning boisi shuki, bundan bir yil avval bunday uchrashuvni — turli din vakillarining bir joyga to'planib, bir-birlarini tushunishga harakat qilishlari mumkinligini hatto xayolimizga ham keltirgan emasmiz. Buning boisi, biz marksistik dunyoqarash dunyoni ruhan idrok etishning eng yuksak cho'qqisi, barcha-barcha shu cho'qqiga intilishi kerak, deb o'ylaganmiz. Bunga shu qadar ishonganmiz va bu ishonchga shu darajada berilganmizki, marksistik kategoriyalar muvofiq ravon hamda hamma narsalarni zararli va umirini yashab bo'lgan narsalar deb inkor etganmiz. Ayni mana shu holat turli dinlar o'rtaosidagi uzoq davom etgan shafqatsiz qaralama-qorashilikka sabab bo'ldi... Mendan Xudo haqida so'zlashadi. Javob tariqasida aytishim kerakki, barcha diniy ta'limotlar, nasroniylilik bo'ladimi, islom yoki buddaviylikni olamizmi, barchasi insonni meh-muruvvatga, saxovatga da'vat etadi. Oliy axloqiy me'yor shundan iborat. Taassufki, tarixda odamlarni o'zimznikilar va o'zgalarga ajratib yuboradigan voqealar ko'p bo'ldi. Buning natijasida oliy axloqiy me'yorlarni o'zimznikilarga qo'llash mumkin-u, o'zgalarga tabiiy qilib mumkin emas, degan majburiy tushuncha yuzaga keldi. Qanday maqsadlarda bo'lmasin, siyosiy, sinfiy, bunga toqat qilib bo'lmaydi. Bunday qarash xalq boshiga og'ir kulfatlar olib kelishini urush ko'rsatib berdi. Ehtimol men soddalar-



Qulol nima uchun ishlab chiqariladi? Odam bolasini o'ldirish uchun! Bu vositadan boshqa hech bir maqsadda foydalani-sh mumkin emas. Qurol bor ekan va u kundan-kunga, yildan-yilga takomillashib bor-e kan, fojia odamlar hayotidan uzoqlash-maydi. AQSHda sodir bo'lgan 11-sentabr vo-qealari, Rossiya — Ukraina tojarosi, bugun Falastin xalqi boshiga tushgan musibatlar dunyo hamjamiyatini bir haqiqatdan ogoh et-moqda: harbiy salohiyat osmon qadar buyuk va kuchli bo'lsa ham bu vositalar insonning eng oddiy, bir og'iz so'z yoki o'zaro tushu-nish bilan hal qilsa bo'ladigan muammolari yechimi oldida chorasiz va ojizdir. Ming ki-lometr naridagi nishonni bexato mo'ljalga oladigan raketa bilan maqtanish mumkin, ammo bu faxr bir ko'ngli xuftonning diliga chi-roq yoqolmaydi. Oyga yetib borish mumkin, ammo inson ko'ngliga yetib borish mushkul ish. Harbiy kuch-qudrat bilan istalgan joy-da chang-to'zon ko'tarish, istalgan joyga bayroq qadash mumkin, ammo inson qal-bini nazoratga olishning iloji yo'q. Publitsist

cha umidvorlik qilayotgandirman, hayotning o'zi haq yoki nohaqligimni ko'rsatar. Ammo ishonchim komilki, bizning jamiyatimizda, mamlakatimiz tarixida noyob burilish sodir bo'ladi. Negaki, qayta qurish va oshkoralik xalqning tafakkurini o'zgartirib yubordi. Biz yangi kuch, yangi ilhom qidirmoqdamiz. Bizda iqtisod bilan bog'liq muammolar bor, shunga qaramay, bu holatdan chiqishning yo'lini topamiz".

2004-yili Issiqko'lda UNESCO shafeligida o'tkazilgan Yevroosiyo sammitida, adib vafotidan so'ng 2013-yili Bishkek va Cho'lpontada bo'lib o'tgan "Chingiz Aytmatovning Issiqko'l forumi: milliy madaniyatlar dialogi va sivilizatsiyalarning o'zaro yaqinlashuvi" shiori ostidagi muhokotda ayni shu g'oya yana bir bor o'z tasdiqini topdi. Insoniyat urushsiz yashashga o'rganishi kerak. Yashab qolishning bundan boshqa yo'li yo'q. Bu tasdiq insoniyat hayotini jiddiy xavf ostida qoldirayotgan muammolar yechimini topish yo'lidagi amaliy harakatlarni birlashtirishda yangicha, umum-bashariy tafakkur zarurligini anglatgan bilan ham ahamiyatli bo'ldi.

Yozuvchi xalqimiz tarixi va madaniyati-ni, boy ma'naviy merosimizni yaxshi bilardi, buyuk allomalarni bilan o'zbek xalqi kabi faxrlanardi. Uning qissa va romanlarida, publitsistik maqolalarida O'zbekiston, o'zbek xalqi, qadim tariximiz, ajdodlarimizning buyuk ma'naviy merosi, Samarqand va Bu-xoro tarixi bilan faxrlanishi, Orol taqdiridan kuyinishlari ko'plab uchraydi. Shu jihatdan qaraganda, Ch. Aytmatovning Sohibqiron Amir Temur haqidagi yirik publitsistik maqolasi g'oyat ahamiyatlidir. Adib O'zbekiston haqida, xalqimizning yuksak aql-zakovati, tarixi, buyuk ajdodlardan qolgan boy ilmiy, ma'naviy meros haqida ko'plab maqolalar yozdi, qadim o'zbek madaniyatining O'rtasi Osiyoga ko'rsatgan ta'sirini ko'hna Vizantiyaning qadim Rusga ko'rsatgan ta'siri bilan qiyosladi. Sobiq tuzumning so'nggi qatag'oni avj olganida xalqimizga xay-ri-xoh va yelkadosh bo'ldi.

O'zbekistonda Chingiz Aytmatovning asarlari sevib mutolaa qilinishi bilan birga, uning serqirra ijodi, davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyati to'g'risida jiddiy tadqiqotlar qilinadi, to'plamlar nashr etiladi. O'zbekiston Milliy universitetida Chingiz Aytmatovning hayoti va ijodiga bag'ishlangan boy ekspozitsiya ishlab turibdi. Adib tavalludining 95 yilligi arafasida asarlarining 10 jildligi, o'zbekistonlik aytmatovshunoslarning ilmiy maqolalaridan iborat "Ikki elning aziz farzandi", "Asrlar-ga ta'liqlik umr" to'plamlari chop etildi.

Chinakam publitsist jamiyatda mavjud og'riqli nuqtalarga nisbatan befarq bo'lol-maydi. Bong uradi, halovatini yo'qotadi. U bu ishni vijdon amri bilan bajaradi va shu ishi-dan halovat topadi. Chingiz Aytmatov butun ijodiy umri davomida vijdon amriga quloq tu-di, uzoqni ko'ra oldi va bizga g'oyat muhim sabaqlar qoldirib ketdi.

Bugun mamlakatimizda xalq bilan, uzoq-yaqin qo'shnilar, niyati xolis hamkorlar bilan manfaatli aloqalarni mustahkamlash si-yosatini yuritilayotgan ekan, bu yorug' siyosat yo'li odamlarning turmush tarzida, kundalik hayoti va samimiy shukronaligida o'z aksini topayotgani, ulug' bobokalonimiz hazrat Alisher Navoiy orzu qilgan, Chingiz Aytmatov ko'p bor urg'ulab ketgan ezigu niyatlar ro'y-boga chiqayotganidan barchamiz mamnun bo'lmog'imiz va shu yangi yo'lga hamisha sodiq qolmog'imiz zarur.



"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeks — 236. Buyurtma G-1246. 43301 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo'ronov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'ZA yakuni — 23:10 Topshirildi — 00:20